

ISHLAB CHIQLIGAN VA KIRITILGAN:

Toshkent davlat agrar universiteti

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2024 yil « 1 » 08 dagi 247 - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me‘yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

| T/r | | bet |
|------------|---|------------|
| 1. | Umumiy tavsifi..... | 4 |
| 1.1 | Qo‘llanish sohasi | 4 |
| 1.1.1. | Malaka talabining qo‘llanilishi..... | 4 |
| 1.1.2. | Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari..... | 4 |
| 1.2. | Kasbiy faoliyatning tavsifi..... | 4 |
| 1.2.1 | Kasbiy faoliyatning sohalari..... | 4 |
| 1.2.2. | Kasbiy faoliyatlarning obyektlari..... | 5 |
| 1.2.3. | Kasbiy faoliyatlarning turlari..... | 5 |
| 1.2.4. | Kasbiy vazifalar..... | 5 |
| 2. | Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar..... | 7 |
| 3. | Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar..... | 7 |
| 4. | Fanlar katalogining tuzilishi..... | 8 |
| | Bibliografik ma’lumotlar..... | 9 |
| | Kelishuv varag‘i..... | 10 |

1. Umumiy tavsifi

70810401 – Agronomiya magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar tayyorlash kunduzgi ta‘lim shaklida amalga oshiriladi. Kunduzgi ta‘lim shakli bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining me‘yoriy muddati 2 yil.

1.1. Qo‘llanish sohasi

1.1.1. Malaka talabining qo‘llanilishi.

Malaka talabi 70810401 – Agronomiya magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta‘lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari:

Mazkur magistratura mutaxassisligi bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas‘ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta‘lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilari;

magistratura mutaxassisligining o‘quv rejasi va fan dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta‘lim tashkilotining talabalari;

magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta‘limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta‘lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta‘minlovchi organlar;

oliy ta‘lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta‘lim tashkilotlariga o‘qishga kirayotgan bakalvriat bitiruvchilari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatlarning tavsifi.

1.2.1. Kasbiy faoliyatning sohalari.

Oliy ta‘lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta‘lim muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o‘qitish, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlari, markazlari, ilmiy ishlab chiqarish birlashmalarida ilmiy tadqiqot faoliyatini yuritish, turli dehqonchilik tizimlarida qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligi va mahsulot sifatini oshirish maqsadida yer, suv, energiya va moddiy-texnika resurslaridan oqilona foydalanish, tuproq unumdorligini saqlash va oshirish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, agronomiya sohasida ilmiy tadqiqotlarni o‘tkazish, tarmoqda ishlab chiqarish jarayonlarini rejalashtirish, tashkil etish, takomillashtirish va boshqarish, fan va texnika yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etish bilan bog‘liq kasbiy sohalar majmuini o‘z ichiga oladi.

1.2.2. Kasbiy faoliyatlarning obyektlari.

Oliy ta‘lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta‘lim muassasalarida pedagogik faoliyat;

Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarida hamda oliy ta’lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyati va jarayonlar; laboratoriya, lizimetrik, vegetatsion, vegetatsion-dala va dala tajribalari; tuproq sharoitini yaxshilash va unumdorligini oshirish bo’yicha ilmiy tadqiqotlar;

qishloq xo’jaligi ekinlari hosidorligi va hosil sifatini oshirishda dehqonchilik tizimlari va almashlab ekishni takomillashtirish jarayoni;

sug’orish suvlari, sug’orishning texnik vositalari, texnikasi va texnologiyalari;

sho’rlangan va botqoqlangan tuproqlar melioratsiyasi;

qishloq xo’jaligi ishlab chiqarishi tizimida faoliyat yurituvchi turlicha mulk va xo’jalik yuritish shakllaridagi tashkilotlarda ishlab chiqarish va boshqaruv jarayoni;

agronomiya bo’yicha ekspert guruhlari, konsalting xizmati tuzilmalari; agronomiya sohasida ilmiy va amaliy tadqiqot, nazariy va amaliy tahlil, modellashtirishni amalga oshirish jarayonlari.

1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:

- *ilmiy-tadqiqot faoliyati;*
- *pedagogik faoliyat;*
- *ishlab chiqarish va xizmat ko’rsatish faoliyati;*
- *tashkiliy-boshqaruv faoliyati.*

1.2.4. Kasbiy vazifalari.

70810401–Agronomiya magistratura mutaxassisligi bo’yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq, magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni samarali bajarishga qodir bo’lishi lozim:

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o’tkazish, tajriba natijalarini tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni kashf etish;

agronomiyada ilmiy tadqiqot ishlarini namunaviy uslubiyotga asosan mustaqil o’tkazish va ulardan olingan natijalarga ishlov berish;

qishloq xo’jaligi ekinlarini yetishtirish agrotexnologiyasini takomillashtirish bo’yicha ilmiy tadqiqotlarni loyihalashtirish va o’tkazish;

innovatsion ko’rgazma yarmarkalarida ilmiy izlanishlar natijalarini namoyish etishi;

innovatsion ishlanmalarni ishlab chiqarishga tatbiq etish;

ilmiy maqolalar, ma’ruzalar, risola, o’quv adabiyotlar tayyorlash va tahrir qilish, o’tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo’yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;

ilmiy adabiyotlar va internet tarmog’ida eng yangi ilmiy, konstruktorlik, texnologik va ekspluatatsion yutuqlar haqidagi ma’lumotlarni maqsadga yo’nalgan holda qidirish va topish;

ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o’tkazish hamda faol ishtirok etish;

mos mutaxassislik mavzusi bo'yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish.

Pedagogik faoliyatida:

oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida mutaxassisligi bo'yicha pedagogik va o'quv-uslubiy faoliyat yuritish;

o'quv jarayonini va ilmiy faoliyatni tashkil qilish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan, o'qitishning texnik vositalaridan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;

elektron (e-learning), mobil (m-learning), masofaviy axborot texnologiya va o'quv-metodik majmualarni mukammal o'zlashtirish;

pedagogik va ilmiy mahorati hamda malakasini muntazam oshirib borish.

Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatida:

ekinlarni joylashtirishning ratsional strukturasi tuzish, almashlab ekishni tashkil etish;

dehqonchilik tizimi, almashlab ekish, tuproqqa ishlov berish, meliorativ tadbirlar va ekinlarni sug'orishda reja va texnologik xaritadan foydalanish;

qishloq xo'jalik ekinlarini yetishtirishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash;

qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orishda suvni tejavchi samarali texnologiyalarni qo'llash;

tuproqlarning meliorativ holatini yaxshilashda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash;

ishlab chiqarish jarayonlari va agrotadbirlarning bajarilish sifatini nazorat qilish;

zamonaviy axborot texnologiyalar, kompyuter texnikalari va kommunikatsion vositalarni amaliyotda qo'llash;

loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish;

agronomiya sohasi bo'yicha xizmat ko'rsatishda me'yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalana olish va servis xizmatini ko'rsatish;

dehqon, fermer va mutaxassislarga dehqonchilik, qishloq xo'jaligi melioratsiyasi va ekinlarni sug'orishning resurstejamkor texnologiyalari bo'yicha maslahat berish;

atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilishda ishtirok etish.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish;

ishlab chiqarish faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini takomillashtirish;

ishlab chiqarish jarayonlarini samarali amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;

zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ularning ekspluatatsiyasi bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish.

2. Kasbiy kompetensiyalarga qo‘yiladigan talablar.

Ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo‘lishi, umummetodologik fanlar asosi, iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunish, ilmiy tadqiqot va pedagogika metodologiyasini bilishi va undan kasb faoliyatida zamonaviy ilmiy asosda foydalana olish;

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

o‘zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko‘rib chiqish va tahlil qilish, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olish;

o‘z faoliyatida meyoriy-huquqiy hujjatlardan foydalana olish, o‘zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila olish;

internet tarmog‘idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo‘lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash;

axborot texnologiyalaridan foydalana olishi, axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot texnologiyalarining mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va tahdidlarni anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish;

ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o‘tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish;

pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanish; ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashish;

ilmiy faoliyati natijalari bo‘yicha davlat va xorijda e’lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash;

davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e’lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash;

ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish;

bajarilayotgan nazariy va amaliy ishlar mavzusi bo‘yicha matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tatbiq etish;

loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholash va ularni sharhlash;

ishlab chiqarish faoliyatini boshqarish sifatini nazorat qilish va tatbiq etish;

ishlab chiqarish jarayonlarini va zahiralarini rejalashtirish va ularni ishlab chiqarishga tatbiq etish;

zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilishda ishtirok etish qobiliyatlariga ega bo‘lishi kerak.

3. Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.

Ilmiy faoliyat – ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash, ilmiy-pedagogik ishini olib borish va ilmiy amaliy tajribalar orttirish jarayonlari bilan uyg‘unlashtirish, tegishli amaliy ko‘nikmalar, kompetentsiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

Ta’lim mutaxassisligi bo‘yicha quyidagi amaliyotlar o‘tkaziladi:

1. Ilmiy tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayorlash hamda himoya qilish;

2. Ilmiy-pedagogik ish;

3. Ilmiy amaliyot (tajriba orttirish).

4. Fanlar katalogining tuzilishi:

| T.r | Fanning malakaviy kodi | O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari | Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda | Kredit miqdori | Semestri |
|----------------|------------------------|--|-------------------------------------|----------------|------------|
| 1.00 | | Majburiy fanlar | 1380 | 46 | 1,2,3 |
| 1.01 | ITMM1104 | Ilmiy-tadqiqot metodologiyasi | 120 | 4 | 1 |
| 1.02 | MFO‘MM1204 | Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi | 120 | 4 | 2 |
| 1.03 | AITUM1106 | Agronomiyada ilmiy-tadqiqot uslublari | 180 | 6 | 1 |
| 1.04 | AEAEA1304 | Almashlab ekishning agroekologik asoslari | 120 | 4 | 3 |
| 1.05 | ZDTUBM1104 | Zamonaviy dehqonchilik tizimlari va ularni boshqarish | 120 | 4 | 1 |
| 1.06 | SRTTM1206 | Sug‘orishning resurstejamkor texnologiyasi | 180 | 6 | 2 |
| 1.07 | ETMETM1306 | Ekologik toza mahsulot yetishtirish texnologiyasi | 180 | 6 | 3 |
| 1.08 | AINVTM1306 | Agronomiyada innovatsion texnologiyalar | 180 | 6 | 3 |
| 1.09 | DTUBM1106 | Dehqonchilikda tuproq unumdorligini boshqarish | 180 | 6 | 1 |
| 2.00 | | Tanlov fanlari | 420 | 14 | 2,3 |
| 2.00 | TFM214 | <i>Tanlov fanlari</i> | 420 | 14 | 2,3 |
| | | Jami: | 1800 | 60 | |
| 3.00 | | Ilmiy faoliyat | 1800 | 60 | 1,2,3,4 |
| 3.01 | ITIMD336 | Ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash hamda himoya qilish | 1080 | 36 | 1,2,3,4 |
| 3.02 | IPI312 | Ilmiy-pedagogik ish | 360 | 12 | 1,2,3 |
| 3.03 | IATO312 | Ilmiy amaliyot (tajriba orttirish) | 360 | 12 | 4 |
| Kvalifikatsiya | | agronom, pedagog-tadqiqotchi | | | |
| HAMMASI | | | 3600 | 120 | 1,2,3,4 |

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

Kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning o'quv reja va fan dasturi (magistratura dasturi), profil, o'qib o'rganish natijalari, o'quv davri, e-learning va m-learning texnologiyalari, agronomiya, loyiha-texnologik, pedagogik, ilmiy-pedagogik ish, malakaviy amaliyotlar, magistrlik dissertatsiyasi, baholash, sifatni baholash va nazorati, davlat attestatsiyasi, mustaqil ta'lim, o'quv fanlari bloki, mazmun, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy-tadqiqotlar jarayoni, maxsus fanlarni o'qitish metodikasi, axborot-kommunikativ tizimlar, zamonaviy tadqiqot metodlari, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, modellar va modellash, fan ishchi dasturlari, zamonaviy o'lchov asboblari, ilmiy tadqiqotlarni tashkil qilish, virtual elektron bilim manbalari, didaktika, nazariya.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy kadrlar iste'molchilari



ISHLAB CHIQLILGAN:

Toshkent davlat agrar universiteti

Birinchi prorektor S.Ya. Islamov

2024 yil « 08 » 06

M.O'.

KELISHILDI:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'limini rivojlantirish tadqiqotlari markazi

Direktor M.Boltaboyev

2024 yil « _____ » _____

M.O'.

O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi Ilm-fan, innovatsiyalar va ta'limni rivojlantirish boshqarmasi

Boshliq T.Ataqulov

2024 yil « 02 » 06

M.O'.

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Rektor T.Sultonov

2024 yil « 11 » 06

M.O'.




Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Direktor Sh.Namozov

2024 yil « 10 » 06

M.O'.



O'simliklar genetik resurslari ilmiy-tadqiqot instituti

Direktor Z.Ziyayev

2024 yil « 11 » 06

M.O'.



Toshkent viloyati Bo'ka tumani "APK BUKA" MCHJ

Direktor U.Boymurodov

2024 yil « _____ » 06

M.O'.

